O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
SAMARQAND DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

Ro‘yxatga olindi:
№ BD 12
2025-yil “25 avgust

“Ta’lim [illegible]”
Samarqand davlat pedagogika
instituti
[illegible]
2025-yil

IQTISODIY BILIM ASOSLARINI O‘QITISH METODIKASI FANINING O‘QUV DASTURI
(kunduzgi, kechki)

Bilim sohasi:	**100000 - Ta’lim**
Ta’lim sohasi:	**110000 – Ta’lim**
Ta’lim yo‘nalishi:	**60111000 – Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari ta’lim yo‘nalishi**

Samarqand – 2025

Fan/mavzu kodi IBAO‘M404	O‘quv yili 2025-2026	Semestr 8	Kreditlar 4
Fan/mavzu turi Majburiy	Ta’lim tili O‘zbek		Haftadagi dars soatlari 4

1.	**Fanning nomi**	**Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)**	**Mustaqil ta’lim (soat)**	**Jami yuklama (soat)**
	Iqtisodiy bilim asoslarini o‘qitish metodikasi	60 (26/34)	60	120

2. I. Fanning mazmuni

“Iqtisodiy bilim asoslarini o‘qitish metodikasi” fanidan talabalarni nazariy bilimlar, amaliy ko‘nikmalarni chuqurlashtirish, bilim, ko‘nikma va malakalarni aniq ma’lumotlar orqali kengaytirish, tanqidiy fikrlash rivojlanishining pedagogik strategiyalari; shaxsiy yo‘nalganlik asosidagi pedagogik texnologiyalar; o‘qitishni differentsiatsiyalash, ta’lim natijalarini baholashning turli usullarini o‘rgatish va o‘zlashtirish samaradorligini aniqlash ko’nikmasini hosil qilish; maktab o‘quvchilarining mantiqiy fikrlashini o‘stirish, bilimlarini kundalik hayotda qo‘llay olishga o‘rgatish metodikalarini bayon qilish; talabalarning iqtisodiy bilim asoslari fanidan nazariy, amaliy va kasbiy tayyorgarligini shakllantirish vazifalarini bajarish iborat.

II. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari)
I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

Iqtisodiy bilim asoslarini o‘qitish metodikasi fanining maqsad va vazifalari

Fanning predmeti va obyekti, fanning maqsadi, fanning asosiy vazifalari, metodik asoslar, ta’limdagi o‘rni, iqtisodiy ta’limning roli, fan orqali shakllanadigan kompetensiyalar, ta’lim mazmunining shakllanishi, metodlar tanlovi, natijaviylikka yo‘naltirish

Iqtisodiyot fanlarining tarixiy shakllanishi va rivojlanish bosqichlari

Iqtisodiy tafakkurning ilk shakllari, qadimgi dunyo iqtisodiy bilimlari, o‘rta asrlarda iqtisodiy ta’lim, Yevropa iqtisodiy fikrlar rivoji, Sharq allomalari iqtisodiy qarashlari, sanoat davri iqtisodiy bilimlari, mustamlaka davridagi o‘zgarishlar, O‘zbekistonda sovet davri iqtisodiy ta’limi, mustaqillikdan keyingi islohotlar, hozirgi zamon iqtisodiy ta’lim tendensiyalari.

Maktabda iqtisodiy bilimlarni shakllantirishning pedagogik va psixologik asoslari

Pedagogik asoslar mohiyati, psixologik yondashuvning ahamiyati, yoshga xos xususiyatlar, iqtisodiy tafakkurni shakllantirish bosqichlari, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv, ijtimoiy-psixologik muhit, kognitiv rivojlanish darajalari, motivatsiya va qiziqish, ijtimoiy kompetensiyalar bilan bog‘liqlik, ta’lim samaradorligiga ta’sir omillari.

O‘quvchilarda iqtisodiy savodxonlikni oshirish usullari va vositalari

Savodxonlik tushunchasi, iqtisodiy tushunchalarni shakllantirish, real hayotiy vaziyatlar asosida o‘qitish, moliyaviy ko‘nikmalarni singdirish, vizual materiallardan foydalanish, elektron ta’lim resurslari, o‘yinli usullar, loyihalash faoliyati, baholash texnologiyalari, savodxonlikni monitoring qilish.

Umumta’lim maktablarida iqtisodiyot fanlarining mazmuni va tarkibi

Mavzular tarkibi va tuzilishi, sinflar bo‘yicha taqsimot, asosiy va qo‘shimcha mavzular, konseptual yondashuvlar, kompetensiyalarni qamrab olgan mazmun, milliy dastur asoslari, ilg‘or xalqaro tajribalar, davriy yangilanishlar zarurati, o‘quv adabiyotlar muvofiqligi, baholash mezonlari bilan bog‘liqlik

Iqtisodiyot fanlarini o‘qitishda innovatsion va interaktiv metodlar

Innovatsion metodlar mohiyati, keys-stadi usuli, muammoli o‘qitish, klaster va aqliy hujum texnikalari, rolli o‘yinlar, raqamli texnologiyalar, simulatsiyalar va test platformalari, integrallashgan darslar, differensial yondashuv, tahlil va refleksiya mashqlari.

Tadbirkorlik va uning turlari: o‘quvchilarda tadbirkorlik kompetensiyasini rivojlantirish

Tadbirkorlik mohiyati, asosiy turlari, kreativ tafakkur va tashabbuskorlik, amaliy loyihalar asosida o‘rganish, mini-biznes g‘oyalar ishlab chiqish, tadbirkorlik muhitini yaratish, o‘quvchilar uchun seminar-treninglar, mentorlik yondashuvi, o‘zini-o‘zi baholash usullari, real tadbirkorlik holatlari bilan tanishtirish.

Iqtisodiy xaritalar, grafiklar va jadvallar bilan ishlash metodikasi

Vizual axborot vositalari turlari, grafik tahlil asoslari, statistik jadval va ularning o‘qilishi, iqtisodiy xaritalar turlari, interaktiv xaritalar, diagrammalar chizish, ma’lumotlar interpretatsiyasi, grafik topshiriqlarni tuzish, GIS texnologiyalar bilan tanishtirish, amaliy misollar asosida ko‘nikmalar hosil qilish.

Iqtisodiyot fanlarida o‘quv topshiriqlari, masalalar va keyslar bilan ishlash usullari

Masala va topshiriqlarning turlari, keys-stadi ishlash bosqichlari, real muammolarga asoslangan topshiriqlar, jamoaviy muhokama orqali yechim topish, o‘quvchilarda qaror qabul qilish ko‘nikmasini rivojlantirish, tanqidiy fikrlashni faollashtirish, interfaol doska va testlar, baholash mezonlari, topshiriqlarni individuallashtirish, refleksiya asosidagi xulosalar.

Fanlararo integratsiya: iqtisodiyot fanlarini boshqa fanlar bilan bog‘lab o‘qitish

Integratsiyaning nazariy asoslari, iqtisodiyot va matematika integratsiyasi, geografiya bilan bog‘liqlik, tarixiy-iqtisodiy tahlillar, texnologiya fanlari bilan bog‘lanish, loyihaviy o‘quv faoliyati, integratsiyalashgan dars ishlanmalar, kompetensiyalarni birlashtirish, tahliliy fikrni rivojlantirish, darslarda ko‘pfanlilik yondashuvi.

Iqtisodiyot fanlarini o‘qitishda sinfdan tashqari ishlarning ahamiyati

Sinfdan tashqari ishlar turlari, fan olimpiadalari, iqtisodiy viktorinalar, ekskursiyalar va uchrashuvlar, loyiha va tanlovlar, klublar faoliyati, kasbga yo‘naltirish bilan bog‘liqlik, mustaqil tadqiqot ishlariga yo‘naltirish, faol ishtirok uchun rag‘batlantirish, natijalarni umumlashtirish.

Iqtisodiyot fanlarini o‘qitishda bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarni baholash.

Baholashning maqsadi va mohiyati, kompetensiyaviy baholash yondashuvi, format va noformat baholash, reyting tizimi, testlar va keyslar asosida baholash, o‘zaro baholash, portfoliolar yuritish, raqamli baholash vositalari, natijaviy tahlil, refleksiya orqali baholash

III. Amaliy mashg‘ulotlar bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg‘ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Iqtisodiy bilim asoslarini o‘qitish metodikasi fanining maqsad va vazifalari
2. Iqtisodiyot fanlarining tarixiy shakllanishi va rivojlanish bosqichlari
3. Maktabda iqtisodiy bilimlarni shakllantirishning pedagogik va psixologik asoslari
4. O‘quvchilarda iqtisodiy savodxonlikni oshirish usullari va vositalari
5. Umumta’lim maktablarida iqtisodiyot fanlarining mazmuni va tarkibi
6. Iqtisodiyot fanlarini o‘qitishda innovatsion va interaktiv metodlar
7. Tadbirkorlik va uning turlari: o‘quvchilarda tadbirkorlik kompetensiyasini rivojlantirish
8. Iqtisodiy xaritalar, grafiklar va jadvallar bilan ishlash metodikasi
9. Iqtisodiyot fanlarida o‘quv topshiriqlari, masalalar va keyslar bilan ishlash usullari
10. Fanlararo integratsiya: iqtisodiyot fanlarini boshqa fanlar bilan bog‘lab o‘qitish
11. Iqtisodiyot fanlarini o‘qitishda sinfdan tashqari ishlarning ahamiyati
12. Iqtisodiyot fanlarini o‘qitishda bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarni baholash.
13. Sinov darslarini tashkil etish

Amaliy mashg‘ulotlarda mavzularga oid amaliy topshiriqlar bajarish, jadval va diagrammalar to‘ldirish, atlas va yozuvsiz xaritada amaliy topshiriqlar bajarish, masalalar yechish, amaliy kuzatish, o‘lchash, meteorologik asboblar bilan ishlash amallari bajariladi.

IV. Mustaqil ta’lim va mustaqil ishlar

Auditoriyadan tashqari vaqtda bajariladigan mustaqil ishlar quyidagi turlarda amalga oshirilishi tavsiya etiladi:

- Mavzuni og‘zaki bayon qilish;
- 4 javobli test savoli tayyorlash;
- SWOT tahlili;
- Taqdimot tayyorlash;
- Maruza tayyorlash;
- rasmli topshiriq tuzish;
- Mo‘lumotlarni jadval ko‘rinishida ifodalash;
- Yozuvsiz xarita bilan ishlash;
- Videodars tayyorlash;
- Ko‘rgazmali qurol tayyorlash;
- Bir soatlik dars ishanma tayyorlash;
- Krassvord tuzish;
- Xorijiy adabiyotlardan ma’lumotlarni to‘plash, tarjima qilish va tahlil qilish;
- Ha, yo‘q javobli test tuzish;
- Audio dars tayyorlash;
- Internet ma’lumotlarini to‘plash va tahlil qilish;
- SWOT tahlili;
- So‘rovnoma o‘tkazish;

Mustaqil ta’lim uchun tavsiya etiladigan mavzulari:

1. Oilaviy byudjetni rejalashtirish va moliyaviy savodxonlik asoslari
2. Bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobat va uning ijtimoiy ahamiyati
3. Bank tizimi va uning fuqarolar hayotidagi o‘rni

	4. Ishlab chiqarish omillari va ularning iqtisodiy faoliyatdagi roli 5. Mehnat bozori va kasb tanlashdagi iqtisodiy omillar 6. Ekologik iqtisodiyot va barqaror rivojlanish g‘oyalari 7. Soliqlar va davlat byudjeti: fuqarolik iqtisodiyati asoslari 8. Raqamli iqtisodiyot va zamonaviy texnologiyalarning ta’siri
3.	**V. Ta’lim natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)** “Iqtisodiy bilim asoslarini o‘qitish metodikasi” fanini o‘rganish natijasida talabalar umumta’lim maktablarida iqtisodiy ta’limni samarali tashkil etish bo‘yicha zarur nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘ladilar. Jumladan, ular iqtisodiy tushunchalarni didaktik tahlil qilish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash, dars rejalari tuzish, iqtisodiy masalalar va keyslar bilan ishlash, tadbirkorlik kompetensiyalarini rivojlantirish, iqtisodiy xarita va grafiklar asosida ishlash, fanlararo integratsiyani amalga oshirish, bilim va ko‘nikmalarni baholash hamda sinfdan tashqari ta’lim shakllarini tashkil etish bo‘yicha metodik yondashuvlarni o‘zlashtiradilar.
4.	**VI. Ta’lim texnologiyalari va metodlari:** • *ma‘ruzalar;* • *interfaol keys-stadilar;* • *diologik yondoshuv* • *SWOT tahlili* • *Wenn diagrammasi* • *debat* • *assisment* • *baliq skleti* • *kim chaqqon* • *kim oshdi* • *blis test va boshqalar*
5.	**VII. Kreditlarni olish uchun talablar:** Fanga oid nazariy va amaliy tushunchalarni to‘la o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish, ijod qilish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo‘yicha amaliy ishni topshirish.
6.	**VIII. Asosiy adabiyotlar** 1. Djumabayeva S.K. Geografiya va iqtisodiy bilim asoslarini o‘qitish metodikasi / O‘quv qo‘llanma: -Toshkent, Sarbon LLS -2024. -174 bet. 2. Jumanov X.T. Iqtisodiy bilim asoslarini o‘qitish metodikasi. Darslik. T.: TDPU, 2022, 390-b. 3. Sariqov E., Xaydarov B. Iqtisodiy bilim asoslari. (8-sinf uchun darslik). Toshkent. “Huquq va Jamiyat” 2019 y. -160 bet. 4. Sariqov E., Haydarov B. Iqtisodiy bilim asoslari. (9-sinf uchun darslik). Toshkent. “Huquq va Jamiyat” 2019 y. -160 bet. 5. G‘afurov U., Sharipov Q.. Tadbirkorlik asoslari. (11-sinf uchun darslik). Toshkent. “O‘zbekiston” NMIU, 2018. – 144 bet. **IX. Qo‘shimcha adabiyotlar** 1. Mustafakulov SH.I., Raximberdiyev O.A., Egamberdiyeva M.SH. Iqtisodiy atamalarning izohli lug‘ati / - Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 2019 489 b. 2. Qodirov A., Xashimov P.Z., Muminov N.G., Ortiqov N.Y., Rejapov X.X. «Iqtisodiyot nazariyasi». Oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun darslik. I-qism. Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti, – Toshkent, «GRAND KONDOR PRINT» 2023. 476 bet. 3. O‘lmasov A., Vahobov A. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. Toshkent. «Iqtisod- moliya»

	2014 y. 4. Tolipov O‘., Ro‘zieva D. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat o‘quv qo‘llanma. Toshkent: “Innovatsiya -ziyo” , 2019, 276 b. **O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING FARMONI** 1. O‘zbekiston Ryespublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida. (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 6-son, 70-modda) 2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 - yil 6 – noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim - tarbiya va ilm - fan sohalarini rivojlantirish chora tadbirlari to‘g‘risida” gi PF - 6108 - son farmoni. **Axborot manbaalari** 1. http http://www.edu.uz - O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi sayti 2. http:www.uzedu.uz - O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi sayti. 3. http://www.gov.uz - O‘zbekiston Respublikasi hukumati portali. 4. https://unilibrary.uz/ - O‘zbekiston Respublikasi oliy ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasalarining yagona elektron kutubxona axborot tizimi 5. https://library.uzfi.uz/ - Samarqand davlat pedagogika instituti elektron kutubxona axborot tizimi 6. t.me/geograflar_kutubxonasi - geografiya faniga oid ilmiy adabiyotlar telegram kanali
7.	Fan dasturi Samarqand davlat pedagogika instituti o‘quv-uslubiy kengashining 2025 yil “___” _____ ____-son bayonnomasi bilan ma’qullangan
8.	**Fan/modul uchun mas’ullar va dastur mualliflari:** D.D.Juraxujayev - Samarqand davlat pedagogika instituti Geografiya kafedrasi assistenti.
9.	**Taqrizchilar:** F.A.Xamroyeva - Samarqand davlat pedagogika instituti Geografiya kafedrasi dotsenti (ichki) O.L.Muxamedov - Sharof Rashidov nomidagi SamDU Ijtimoiy-iqtisodiy geografiya kafedrasi dotsenti (tashqi)

Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan 2025-yil uchun tasdiqlangan xalqaro e’tirof etilgan tashkilotlarning (Quacquarelli Symonds World University Rankings, Times Nigher Education, Academic Ranking of World Universities) reytingida 98-o‘rinni egallagan Moskva davlat universitetning Iqtisodiyot fakulteti, Iqtisodiyot yo‘nalishi (История экономических учений, Теория и практика экономического развития) dasturlari tahlil qilinib, mazkur fan dasturining bir qator mavzulari mazmuniga singdirildi.

https://www.econ.msu.ru/departments/inh/learning/History_of_Economic_Thought/

https://intereconomics.econ.msu.ru/education/bachelour/programms/the_Theory_of_economic_development/Program/

Fan dastur Tabiiy fanlar fakultetning 2025-yil 23-apreldagi №2 sonli farmoyish bilan tuzilgan ishchi guruh tomonidan maqullangan.

Tuzuvchi: **D.D.Juraxujayev**

Kafedra mudiri: **F.A.Xamroyeva**

Fakultet dekani: **A.A.Mirzayev**

O'quv-ishlar bo'yicha prorektor: **D.H.Yusulmonov**

Samarqand davlat pedagogika instituti
“Geografiya” kafedrasi assistenti D.D.Juraxujayev tomonidan tayyorlangan “Iqtisodiy bilim asoslarini o‘qitish metodikasi” o‘quv fan dasturiga

TAQRIZ

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarda, rivojlangan mamlakatlarning ilg‘or tajribalari hamda ilm-fan va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan holda ta’limni tashkil etish, kasbga bo‘lgan qiziqishni kuchaytirish, uni mustahkam egallash va nazariy bilimlarning amaliyot bilan keng bog‘liqligini ta’minlash, ma’naviy barkamol hamda intellektual rivojlangan shaxsni tarbiyalash dolzarb masala bo‘lib qolmoqda. Bu muammolarni hal qilishda fanlar kesimida ilmiy asoslangan, zamonaviy darsliklarni yaratish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Mazkur o‘quv dasturida geografiya fanining nazariy bilimlarini mustahkamlash, amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish va o‘quvchilarda mantiqiy, tanqidiy hamda ijodiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan topshiriq va mashqlar tizimi aniq belgilangan. Dasturda geografik masalalar orqali bilimlarni amaliyot bilan bog‘lash, matematik va statistik usullardan foydalanish, xarita bilan ishlash, grafik va jadval tahlili kabi faoliyat turlari izchil yoritilgan.

O‘quv dasturining afzallik jihatlaridan biri shundaki, unda har bir bo‘limda o‘quvchilarning yosh xususiyatlari, bilim darajasi va bosqichma-bosqichlik tamoyili inobatga olingan. Masalalar tizimi oddiydan murakkabga qarab tuzilgan bo‘lib, ularning mazmuni geografik qonuniyatlarni ochib berishga, hududiy tafakkurni kengaytirishga va tabiiy hamda ijtimoiy jarayonlarni tahlil qilish ko‘nikmasini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, o‘quv dasturida masalalar orqali ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni yechish imkoniyatlari ko‘rsatib o‘tilgan. Bu esa fanlararo integratsiyani ta’minlash, o‘quvchilarni hayotiy muammolarni hal qilishga yo‘naltirish va ilmiy dunyoqarashini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur fan dasturi Malaka talablari asosida yozilgan, o‘quv rejalariga to‘liq mos keladi. Ushbu namunaviy fan dasturi Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari ta’lim yo‘nalishi bakalavr talabalari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, fan dasturini nashr etishga loyiq deb hisoblayman.

Samarqand davlat pedagogika instituti
“Geografiya” kafedrasi mudiri: **dots. F.A.Xamroyeva**

Samarqand davlat pedagogika instituti
“Geografiya” kafedrasi assistenti D.D.Juraxujayev tomonidan tayyorlangan
“Iqtisodiy bilim asoslarini o‘qitish metodikasi” o‘quv fan dasturiga
TAQRIZ

Iqtisodiy bilimlar inson hayotida beqiyos ahamiyatga ega. Ular jamiyatning taraqqiyot bosqichlarini anglashda, tabiiy va mehnat resurslaridan oqilona foydalanishda, mamlakatlararo iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ilmiy hamkorlikni tahlil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan iqtisodiy bilim asoslarini o‘qitish metodikasi fani ta’lim jarayonida o‘z o‘rniga ega bo‘lib, u quyidagi to‘rt uzviy bog‘liq masalani o‘rganadi: “O‘qitish maqsadi – iqtisodiy bilimlarni nima uchun o‘rganamiz?; O‘qitish mazmuni – nimani o‘qitamiz?; Ta’lim vositalari – nimalar yordamida o‘rganamiz?; O‘qitish shakl va metodlari – qanday o‘qitamiz?”. Shu bilan birga, mazkur fan o‘quvchilarning iqtisodiy tafakkurini shakllantirish, ularning aqliy salohiyatini rivojlantirish va tarbiyaviy jihatdan yetuk shaxs sifatida kamol topishiga xizmat qiladi.

O‘qituvchi faoliyati orqali iqtisodiy bilimlarning mazmuni o‘quvchilar ongiga, dunyoqarashiga va hayotiy faoliyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Taqdim etilgan o‘quv dasturida iqtisodiy bilimlarni o‘qitish metodikasining nazariy asoslari to‘liq qamrab olingan. Har bir mavzu bo‘yicha talabalar egallashi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar aniq belgilangan. Dasturdagi amaliy mashg‘ulotlar qismi bakalavrlarning nazariy jihatdan egallagan bilimlarini mustahkamlashga yo‘naltirilgan bo‘lib, unda iqtisodiy tahlil, amaliy vazifalarni hal etish, mustaqil ishlash kabi masalalar yoritilgan. Shuningdek, berilgan metodik tavsiyalar amaliy mashg‘ulotlar va mustaqil ta’lim topshiriqlarini samarali tashkil etish talablari asosida ishlab chiqilgan.

Muallif tomonidan tayyorlangan mazkur fan dasturi amaldagi malaka talablari asosida yozilgan, o‘quv rejalariga to‘liq mos keladi. Ushbu namunaviy fan dasturi 60111000 – Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari ta’lim yo‘nalishi bakalavr talabalari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, fan dasturini nashr etishga tavsiya etiladi.

SamDU Ijtimoiy-iqtisodiy
geografiya kafedrasi dotsenti: **O.L.Muxamedov**